



UDK: 37.091.33:811.57'246(575)

Dilshada RAXMATULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi
E-mail: raxmatullayeva-dilshoda@mail.ru

"Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti" NNT direktori f.f.d., prof.S.Nasirova taqrizi asosida

ISSUES OF ACQUISITION OF CHINESE "SHENG MU" AND "YUN MU" SOUNDS AND PHONETIC INTERFERENCE: A CASE STUDY OF UZBEK STUDENTS

Annotation

This article presents the results of a scientific study dedicated to the teaching of Chinese phonetics and the problems encountered in learning its sounds. The Chinese language is characterized by its unique pronunciation of initials (shengmu) and finals (yunmu — syllable endings composed of vowels and consonants), which leads to interference among Uzbek-speaking students due to differences in pronunciation. The study examines pronunciation differences, visual representations through mathematical models and observations, and provides analysis results along with conclusions and recommendations.

Key words: Chinese language, shengmu, yunmu, phonetic experiment, observation, interference.

ПРОБЛЕМЫ УСВОЕНИЯ ЗВУКОВ «ШЭНМУ» «ЮНЬМУ» КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА И ФОНЕТИЧЕСКОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье представлены результаты научного исследования, посвященного вопросам преподавания фонетики китайского языка и проблемам, возникающим при изучении звуков. Китайский язык отличается особенностями произношения инициалей (шэнму) и финалей (юньму — завершающих слогов, состоящих из гласных и согласных), что приводит к интерференции у студентов, говорящих на узбекском языке, в силу различий в фонетике двух языков. В исследовании проанализированы отличия китайского произношения, представлены математические модели и наблюдения, визуализирующие процесс произношения, а также сделаны выводы и предложены рекомендации.

Ключевые слова: Китайский язык, шэнму, юньму, фонетический эксперимент, наблюдение, интерференция.

O'ZBEK TALABALARI MISOLIDA XITOIY TILIDAGI "SHENG MU", "YUN MU" TOVUSHLARNING O'ZLASHTIRILISHI VA FONETIK INTERFERENSIYASI MASALALAR

Annotatsiya

Maqolada xitoy tili fonetikasi o'qitish masalalari, tovushlarni o'rganishdagi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari haqida ma'lumot beriladi. Xitoy tili o'zining shengmular (initsiallar) va yunmular (finallar: unli va undosh tovushdan tashkil etilgan bo'g'in yakuni) talaffuzdagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu, o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarda interferensiya sodir bo'lishiga olib keladi, chunki talaffuzda farq mavjud. Tadqiqotlarda, talabalar xitoy tili talaffuzidagi farqi va talaffuzi jarayonini vizual tarzda ifodalovchi matematik modellar, kuzatuvlar orqali ko'rib chiqiladi, tahlil natijalari va xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy tili, shengmu, yunmu, fonetik tajriba, kuzatuv, interferensiya.

Kirish. Xitoy tili fonetika tizimi pinyin transkripsiyasi, bo'g'in tuzilishi va ohang (ton) tizimini o'z ichiga oladi. Xitoy tilining fonetik tizimiga xos bo'lgan jihatlar — bo'g'in tuzilishining soddaligi, bo'g'in chegaralarining aniqligi hamda tonlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, unli tovushlarning talaffuzi murakkab va o'ziga xos fonetik tizimni tashkil etadi. Ushbu fonetik xususiyatlar xitoy tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'zbek talabalar uchun talaffuzda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ayni paytda O'zbekistonda xorijiy tillarni chuqur va sifatli o'qitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada V.M. Beldiyan, Q. Mahmudov, M.M. Mirtojiev, O.T. Maxmudova kabi o'zbek olimlari va M.O.Andreyevna,

A.N.Kolesnikova, S.Odinye, P.Taele kabi xorij olimlar, Zhao Tianhui, Liao Jinxiang, Liu Zhangcai, Zheng Xianlang, Gao Song kabi xitoylik olimlarning ishlari ko'rib chiqilgan. V.M. Beldiyan 1980-yilda e'lon qilgan "Zamonaviy rus tilining fonetikasini o'rgatishdagi ilmiy va metodologik muammolar" nomli kitobi — ayniqsa, rus tilini o'rgatuvchi ustozlar va talabalar uchun muhim bir qo'llanma hisoblanadi. Bu asarda muallif bir qarashda murakkab tuyuladigan fonetika sohasini o'qitishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklarni chuqur o'rganadi. Beldiyan ayniqsa, rus tili ona tili bo'lmagan o'rganuvchilar uchun, talaffuzdagi nozik farqlarni eshitish va to'g'ri talaffuz qilish — eng katta muammolarini o'rgangan. Muallif bu muammoga qarshi qanday metodlar bilan kurashish mumkinligini taklif qiladi [1]. Q. Mahmudov O'zbek tili tarixiy fonetikasi bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan [2]. M.M. Mirtojiev o'z monografiyasida o'zbek


tilining fonetik tizimi — unlilar, undoshlar, urg'u, intonatsiya kabi asosiy elementlarini nazariy va amaliy tahlil qiladi. Kitob fonetika fanining amaliy jihatlari uchun laboratoriya va tajriba metodlarini ham o'z ichiga oladi [3]. M. O. Andreyevnaning dissertatsiyasida til universiteti talabalari xitoy tilini o'rganish jarayonida fonologik kompetensiyani shakllantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda o'qitish trilingvizm sharoitida, ya'ni ona rus tili, birinchi xorijiy til — ingliz tili va "boshlang'ich darajadan" o'rganilayotgan xitoy tili fonologik tizimlarining o'zaro ta'siri doirasida amalga oshiriladi. Ishda talaffuz malakasini yuqori sifatda shakllantirish uchun trilingval ta'lim kontekstini hisobga olish zarurligi asoslab beriladi, tillar o'rtasidagi interferensiya va transfer zonalari aniqlanadi hamda uch til fonetik-fonologik tizimlarining qiyosiy tahliliga asoslangan metodika ishlab chiqilib, tajriba asosida sinovdan o'tkaziladi. Tadqiqot natijalari talabalar fonologik kompetensiyasining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi, bu esa ularning muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqoti va kasbiy tayyorgarligiga xizmat qiladi. Ishning amaliy ahamiyati 2-jadval. Xitoy tili oddiy yunmular jadvali[7].

Pinyin	b	p	m	f	d	t	n	l	g	k	h	j	q	x	z	c	s	zh	ch	sh	r
IPA	[p]	[p ^h]	[m]	[f]	[t]	[t ^h]	[n]	[l]	[k]	[k ^h]	[x]	[tɕ]	[tɕ _h]	[ɕ]	[ts]	[ts _h]	[s]	[tʂ]	[tʂ _h]	[ʂ]	[ʐ]
	Unli tovush								Ta'rifi						IPA						
	a								past						/a/						
	e								markaziy						/ɤ/						
	o								oʻrta-orqa						/o/						
	i								yuqori-old						/i/						
	u								yuqori-orqa						/u/						
	ü								yuqori-old						/y/						

Xitoy tili unli tovushlar ya'ni sodda yunmulari talaffuzidagi muammolari Zhao Tianhui va bir nechta olimlarning o'zbek talabalari tomonidan mandarin xitoy tili asosiy unli tovushlarini o'rganishga qaratilgan eksperimental tadqiqot taqdim etilgan. Tadqiqot talabalarining talaffuz materiallari tahlil qilish va o'rganish uchun akustik tajribalarni qo'llaydi. Natijalar turli unli tovushlar bo'yicha talabalarining fonetik kompetensiyasi turli darajalarini ko'rsatadi, ba'zi unli tovushlarda

shundaki, unda trilingvizm sharoitida xitoy tilini o'rgatuvchi o'qituvchilar uchun mashqlar majmuasi va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan[4]. A.N. Kolesnikova dissertatsiyasida amaliy fonetikasi o'qitilishini multimedia texnologiyalariga asoslangan holda optimallashtirish modelini ishlab chiqilgan va fonetika o'qitish metodikasini rivojlantirishga xizmat qiladi va oliy ta'lim hamda umumta'lim muassasalarida qo'llanishi mumkin[5]. S. I. Odinyening ilmiy maqolasida xitoy tilidagi initials (1-jadval. b, p, m, f, d, t, n, l, g, k, h, j, q, x, z, c, s, zh, ch, sh, r) finallar (unli tovushlar) quyidagilarga bo'linadi: olti ta oddiy final (2-jadval. a, e, i, o, u, ü), o'n uchta murakkab final (ai, ao, ei, ia, iao, ie, iou, ou, ua, uai, üe, uei, uo), o'n olti ta nasal final (sakkizta old nasal: an, en, ian, in, uan, üan, uen, ün; sakkizta orqa nasal: ang, eng, iang, ing, iong, ong, uang, ueng). Initial (shengmu) va final (yunmu) tovushlar jami 56 ta asosiy tovushni tashkil etadi. Ularning kombinatsiyalari hamda maxsus holatlar 411-413 ta mumkin bo'lgan kombinatsiyalarni beradi [6]. 1-jadval. Xitoy tili shengmular jadvali[7].

qiyinchiliklar kuzatilgan. Bu tadqiqotda unli tovushlarni talaffuz qilish formant chastotalari yordamida tekshiriladi, bu odatda o'rta unli tovushda, asosan birinchi uchta formant chastotasi V1, V2, V3ni o'z ichiga oladi. Birinchi ikkita formant chastotalari V1, V2 talaffuzning qandayligini yaxshi tushuntiradi. Har bir tovush IPA (Xalqaro fonetik alfavit)ga asoslanib, talaffuzi bilan ko'rsatilgan (1-Rasm)[8].



1-rasm. O'ng tarafdagisi Xitoylikning unli tovushlar talaffuzi va chap tarafdagisi O'zbek talabalarining xitoy tili unlilar talaffuzi rasmi

Zheng Xianlang tadqiqotida xitoy tilini umuman o'rganmagan 16 nafar Markaziy Osiyo talabasi ishtirok etdi. Avvalo eshitish orqali farqlash metodidan

foydalanilib, ularning undoshlar va yunmulardagi talaffuz xatoliklari aniqlanib, tahlil qilingan. Shu bilan birga, tajriba fonetikasi yondashuvi tatbiq etildi, va qatnashchilarning

talaffuzlarini o'rganish uchun Praat dasturidan foydalangan holda batafsil fonetik tahlil olib borildi. Maqolada bu xatoliklarning sabablari beshta asosiy omil orqali muhokama qilingan: ona tilining salbiy ta'siri – ya'ni tashqi interferensiya, xitoy tilidan noto'g'ri o'tilish ichki interferensiya; fonetik o'qitish sifati va darajasi – darslar

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida mavzuga kompleks yondashuv asosida ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Asosiy maqsad – xitoy tili “shengmu”, “yunmu”larni o'zlashtirishga va talaffuzdagi interferensiyalar masalasiga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Asosiy metod tahlil va sintez metodlari, shu bilan birga empirik metodlar tarkibiga kiruvchi kuzatuv usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki a past tovush, bu tovushning o'zbek tilidagi “a” tovushiga o'xshash bo'lishi mumkin; e markaziy tovush, u o'zbek tilidagi “e” tovushidan farq qiladi va IPAda /s/ deb ifodalanadi; o o'rta-orqa tovush, o'zbek tilidagi “o” tovushidan farq qiladi. i yuqori-old tovush, bu o'zbek tilidagi “i” tovushiga o'xshaydi, u yuqori-orqa tovush, o'zbek tilidagi “u” tovushiga o'xshash, ü yuqori-old tovush, o'zbek tilida bu tovushga o'xshash tovushlar yo'q, lekin IPAda /y/ bilan ifodalanadi. Ammo oddiy unli tovushlar boshqa boshlang'ich tovushlar bilan kelganda o'zgarishi mumkin. Unli tovushlar odatda tilning oldinga va orqaga, yuqoriga va pastga harakatlanishi va lablarning ishtiroki asosida uch turga bo'linadi. Uch xil tasnifni birlashtirish orqali unli tovushlarning to'rtburchakli xaritasi tuziladi, bunda tilning barcha unli tovushlari o'z o'rmini topadi. Xitoy adabiy tilining (普通话) 7 ta o'rta unli tovushi (yunmular) ko'rsatilgan: a[a], o[o], e[e], e[e], i[i], u[u], ü[y], oldingi unli tovushlar i [i], ü[y], er[ə~] hamda tilning oldinga va orqaga, yuqoriga va pastga harakatlanishlari va lablarning harakati bilan tasniflanishi mumkin. Xitoy unli fonemalari o'zbek unli fonemalaridan sezilarli darajada farq qilishi ko'rinib turibdi. Ularning talaffuziga alohida e'tibor qaratish kerak. Ayniqsa, ü va e tovushlari o'zbek tilida yo'q, ularning talaffuzi talabalar muammolari keltirib chiqaradi. Bu esa interferensiya hodisasini keltirib chiqaradi va e'tibor berishni talab qiladi.

Zhao Tianhui tadqiqotida o'zbek talabalarining xitoy tili asosiy yunmularini o'rganishiga qaratilgan akustik tajribalar orqali amalga oshirildi; o'zbek talabalar xitoy tili unli tovushlarni yaxshi egallashga muvaffaq bo'lishgan, ammo [ə], [ɪ] va [ʊ] kabi unli tovushlarda qiyinchiliklarga duch kelishgan; o'qish davomida talabalar talaffuzi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, o'qish jarayonining oxirgi bosqichlarida yaxshilanishlar kuzatilgan; o'zbek talabalarining xitoy tili asosiy unli tovushlarini o'zlashtirish jarayonini vizual tarzda ifodalovchi matematik model yaratilgan; uch o'lchovli model tahlili talabalarining xitoy tili unli tovushlarini o'zlashtirishda mahalliy nutq so'zlovchilari bilan farqlarni va qiyinchiliklar hamda taraqqiyot sohalarini ta'kidlaydi. 1-rasmda o'qlar chapgava pastga yo'naltirilgan, bu esa odatdagi matematik ko'rsatkichlarga qarama-qarshi. Buning sababi, bu usul unli tovushlarning qanday qilib til harakatlarini tasvirlashga yordam beradi. Bu tahlil yordamida, biz unli tovushlarni nafaqat qanday eshitishtirishni, balki ular qanday qilib tilning harakatlari bilan bog'liq ekanligini ham tushunamiz. Umuman olganda, agar uchburchakning uchlari sifatida yuqori, orqa unli tovushlar [i], [u], [a] ni olishni nazarda tutsak, o'zbek talabalar va ona tilisi xitoy tili bo'lganlar asosiy unli tovushlari asosan shu uchburchakning uchlari tashkil etuvchi o'tkir uchli

mazmuni, metodik yondashuv va tajribalar; o'qituvchining yo'naltirishi – talabalarga berilgan ko'rsatmalar va mashg'ulotlar uslubi; talabaning shaxsiy xususiyatlari – o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi, fonetik intuitsiyasi va individual farqlar[9].

uchburchak ichida joylashgan. Ammo, o'zbek talabalar tomonidan talaffuz qilinadigan unli tovushlar [ə], [ɪ], [ʊ] bir-biriga nisbatan yaqin joylashgan bo'lib, ularning oralaridagi masofa kichik va umuman olganda talaffuz pozitsiyalari pastroq. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, o'zbek talabalar tomonidan talaffuz qilinadigan unli tovushlar [y] ning o'rni xitoy tili ona tilisi bo'lganlarnikiga nisbatan yuqoriroq va oldinda, ushbu unli tovushni talaffuz qilganda til pozitsiyasi o'zbek talabalarida biroz yuqoriroq va oldinda joylashgan, [ə] unli tovushining o'rni esa pastroq va oldinga joylashgan. O'zbek talabalar [ɪ] unli tovushining o'rni nisbatan pastroq va oldinda, [ʊ] ning o'rni esa ona tilida so'zlashuvchilarnikiga nisbatan pastroq va orqaga, ya'ni til pozitsiyasi ona tilisi xitoy tili bo'lgan so'zlashuvchilarnikiga qaraganda pastroq va orqaga joylashgan. [i], [u] va [a] yunmulari o'zbek talabalar tomonidan yaxshi o'rganilgan tovushlardir, [y], [ə], [ɪ] va [ʊ] esa o'zbek talabalar uchun qiyinroq o'rganiladigan yunmularidir. Turli o'rganish bosqichlaridagi o'zbek talabalar [i] ning V qiymatlari juda katta farq qilmaydi; o'zbek talabalar unli tovushi [u] va [a] ning V qiymatlari o'rganish vaqtining o'tishi bilan ona tilisi xitoy tili bo'lganlarnikiga yaqinlashadi. O'zbek talabalar unli tovushi [y] ning V qiymatlari o'rganishning turli bosqichlarida nisbatan barqaror, lekin ona tilisi xitoy tili bo'lganlarnikiga qaraganda hali ham farq mavjud. O'zbek talabalar unli tovushlari [ə], [ɪ], [ʊ] ning V qiymatlari o'rganishning turli bosqichlarida noturg'un, va faqat o'rganishning oxirgi bosqichlarida ona tilisi xitoy tili bo'lganlarnikiga yaqinlashishning aniq tendentsiyasi paydo bo'ladi.

Umuman olganda, o'zbek talabalar yuqori unli tovushlarni yaxshi egallagan. O'zbek talabalar orasidagi vositachi til tizimining dinamik o'zgarishini ko'rib chiqsak, o'zbek talabalar o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida yuqori unli tovushlarni yaxshi o'rganishlari mumkin, lekin o'zbek talabalar unli tovushi [y] ning akustik maydonidagi joylashuvi ona tilisi xitoy tili bo'lganlarnikiga nisbatan ancha oldinda va bu xato jiddiyroq, ammo unli tovushlar [ə], [ɪ], [ʊ] uchun o'zbek talabalar biroz qiyinchiliklarga duch kelsalar ham, o'rganishning oxirgi bosqichlarida sezilarli o'sish kuzatiladi.

Kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki xitoy tili o'rganuvchi talabalarida i [i] turli initsialdan keyin yuqori unli, til uchi old unli va til uchi orqa unli kabi talaffuz qilinadi. Bu initsial zh [tʂ], ch [tʂʰ], sh [ʂ], r [ʐ] lar bilan til uchi orqa unli, z [ts], c [tsʰ], s [s] lar esa til uchi old qator unli shaklida keladi. Talabalar ü [y] ni to'g'ri talaffuz qila olamiz deb o'ylashsa ham, aslida uni o'zbek tilidagi “u” va ruscha “yu” bilan adashtirishga odatlanib qolishgan. O'zbek talabalar bu yunmularni talaffuz qilganda interferensiya hodisasi sodir bo'ladi. Shengmular j [tɕ], q [tɕʰ], x [ɕ] talaffuzida ham interferensiya sodir bo'ladi. j [tɕ] talaffuzida o'zbek tilidagi “j” yoki rus tilidagi “ж” tovushlari bilan adashtiriladi, q [tɕʰ] va x [ɕ] talaffuzida esa xitoy tilidagi “q” ni “ch”, “x”ni “s” tovushi bilan talaffuz qilinadi[10].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillarga ko'ra biz bir qator xulosa va takliflar berishimiz mumkin. Fonetik interferensiyani kamaytirish uchun xitoy tili

fonetik tizimi bilan o'zbek tili fonetikasi orasidagi farqlar alohida ta'kidlangan holda o'rgatilishi lozim. O'qituvchi yunmu va shengmularning aniq tahlilini berishlari va talabalar lab hamda til holatini tushunishlari uchun sxematik chizmalar yordamida tushuntirishlari kerak. Masalan, ü [y] va u [u] tovushlari bir xil lab shakliga ega bo'lsa-da, ular turlicha talaffuz qilinadi. Shu bois avval u [u] tovushining talaffuz qilish usullarini tushuntirib, keyin til holatlarini solishtirish orqali ü [y] tovushini ko'rsatishlari tafsila qilinadi. Talaffuzni vizual o'rgatish usullarini (grafik modellar, artikulyatsion diagrammalar) amaliy darslarda keng joriy qilish zarur. Audio va video materiallardan tizimli foydalanish, xususan, to'g'ri talaffuz

namunalarini ko'p bora eshitish va takrorlashga asoslangan mashg'ulotlar samarali bo'ladi. Buning uchun esa audacity kabi tovushlar yzuvi bilan ishlash imkonini beruvchi dasturlardan, tayyor audio manbalar bazasidan [11] foydalangan maqul. Individual yondashuv asosida talaffuz xatolari bo'yicha har bir talaba uchun fonetik tahlil varaqalari ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Talabalar bilan maxsus fonetik treninglar tashkil etish orqali talaffuzdagi noaniqliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish mumkin. Yunmu shengmularni o'zlashtirish jarayonini osonlashtirish, interferensiyalarni oldini olish uchun maxsus tizimli fonetik mashqlardan foydalanish maqsadga muvaffiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Белдиян В. М. Научно-методологические проблемы преподавания фонетики современного русского языка. — Ташкент: Фан, 1980. — 171 с.
2. Mahmudov, Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent: Fan, 2006. 168 b.
3. Mirtojiev, M. M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent: Fan, 2013. 422 b.
4. Малых, О. А. . Формирование фонологической компетенции студентов в условиях учебного трилингвизма (китайский язык, языковой вуз) Автореф. дис.... д-ра пед. наук. Москва-2016 – 24 с;
5. Колесникова А.Н «Модель оптимизации обучения практической фонетике языковом вузе на базе мультимедийных технологий (английский язык)» Автореф. дис.... д-ра пед. наук.- Москва-2016 – 26 с
6. Odinye, S. "Phonology of Mandarin Chinese: Pinyin vs. IPA." Quarterly Journal of Chinese Studies, no. 4, 2015, p. 51.
7. IPA Chart with Sounds – International Phonetic Alphabet Sounds
8. Zhao, Tianhui, Liao, Jinxiang, Liu, Zhangcai. "Uzbekistan International Students' Acquisition of Basic Mandarin Vowels: An Experimental Study." Modern Linguistics (现代语言学), vol. 11, no. 10, 2023, pp. 4610–4617, doi:10.12677/ML.2023.1110618.
9. Zheng, Xianlang, Gao Song. "A Study of Chinese Phonetic Learning Errors of Central Asian Students with Zero-based Chinese Proficiency." Transactions on Comparative Education, vol. 6, no. 3, 2024, pp. 117–126. doi:10.23977/trance.2024.060316.
10. Рахматуллаева, Дилшада Маратовна. "汉语语音及它的教学问题 (乌兹别克斯坦学生为例)." Современные востоковедческие исследования 3.1 (2021): 6-13.
11. <https://www.newconceptmandarin.com/chinese-pronunciation/>
12. Sayyora A. Nazarova. "On the issues of overcoming interlingual and intralingual interference in teaching Chinese to students: lexical and grammatical aspect" Modern oriental studies, vol. 3, no. 3, 2021, pp. 401-409. doi:10.24412/2686-9675-3-2021-401-409